



FUQAROLIK HUQUQIDA ZARAR TUSHUNCHASI VA UNI ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARIGA NISBATAN QO'LLASH XUSUSIYATLARI

**Abdulkarimov Shohzod
Abduhakim o'g'li**

*IIV Ma'naviy-ma'rifiy ishlar va kadrlar bilan
ta'minlash departamenti, Yoshlar ittifoqi yetakchilar
kengashi raisi*

Annotatsiya

Mazkur maqolada fuqarolik huquqida zarar tushunchasining huquqiy mohiyati, uning turlari hamda zarar institutining umumiy nazariy asoslari tahlil qilinadi. Shuningdek, ichki ishlar organlari xodimlariga nisbatan zarar institutini qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari, xususan, xizmat vazifalarini bajarish jarayonida yetkazilgan zarar uchun javobgarlik subyektini aniqlash, davlatning fuqarolik-huquqiy javobgarligi, zarar bilan xizmat faoliyati o'rtasidagi sababiy bog'liqlikni belgilash hamda zarar miqdorini aniqlash bilan bog'liq muammolar yoritiladi. Maqolada ichki ishlar organlari xodimlarining hayoti va sog'lig'iga yetkazilgan zarar bilan bog'liq munosabatlarni fuqarolik huquqi normalari asosida tartibga solishning amaliy jihatlari va sud amaliyotida uchrayotgan muammolar tahlil qilinadi. Tadqiqot natijasida amaldagi qonunchilikni takomillashtirish va huquqni qo'llash amaliyotini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy xulosalar va takliflar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: fuqarolik huquqi, ichki ishlar organlari xodimlari, hayot va sog'liqqa yetkazilgan zarar, davlatning fuqarolik-huquqiy javobgarligi, sababiy bog'liqlik, moddiy zarar, ma'naviy zarar, kompensatsiya.

Аннотация: В статье анализируется правовая сущность понятия вред в гражданском праве, его виды, а также общетеоретические основы института вреда. Кроме того, раскрываются особенности применения института возмещения вреда в отношении сотрудников органов внутренних дел, в частности вопросы определения субъекта гражданско-правовой ответственности за вред, причинённый при исполнении служебных обязанностей, гражданско-правовая ответственность государства, установление причинно-следственной связи между причинением вреда и служебной деятельностью, а также проблемы определения размера вреда. В статье рассматриваются практические аспекты гражданско-правового регулирования отношений, связанных с причинением вреда жизни и здоровью сотрудников органов внутренних дел, и анализируются проблемы, возникающие в судебной практике. По результатам исследования сформулированы научные выводы и предложения, направленные на

совершенствование действующего законодательства и развитие правоприменительной практики.

Ключевые слова: гражданское право, сотрудники органов внутренних дел, вред, причинённый жизни и здоровью, гражданско-правовая ответственность государства, причинно-следственная связь, имущественный вред, моральный вред, компенсация.

Abstract: This article examines the legal nature of the concept of damage in civil law, its types, and the general theoretical foundations of the institution of damage. It also reveals the specific features of applying the institution of compensation for damage in relation to employees of internal affairs bodies, in particular the issues of determining the subject of civil liability for damage caused in the course of performing official duties, the civil liability of the state, the establishment of a causal link between the damage and official activities, as well as the problems of determining the amount of damage. The article analyses the practical aspects of civil law regulation of relations related to damage to the life and health of employees of internal affairs bodies and identifies the main problems arising in judicial practice. Based on the results of the study, scientific conclusions and proposals aimed at improving the current legislation and developing law enforcement practice are formulated.

Keywords: civil law, employees of internal affairs bodies, damage to life and health, civil liability of the state, causal link, material damage, moral damage, compensation.

Kirish. Bugungi kunda davlat organlari faoliyatining huquqiy asoslarini mustahkamlash, xodimlarning kasbiy faoliyati davomida ularning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ta'minlash masalalari alohida dolzarblik kasb etmoqda. Ayniqsa, ichki ishlar organlari xodimlarining xizmat vazifalarini bajarish jarayoni bevosita yuqori xavf darajasi bilan bog'liq bo'lib, ularning hayoti va sog'lig'iga zarar yetkazilishi ehtimoli boshqa soha xodimlariga nisbatan ancha yuqori hisoblanadi. Shu bois, ichki ishlar organlari xodimlarining hayoti va sog'lig'iga yetkazilgan zararni fuqarolik-huquqiy tartibda qoplash masalalari huquqiy davlat va ijtimoiy adolat tamoyillarini ta'minlash nuqtayi nazaridan muhim ahamiyatga ega. Fuqarolik huquqida zarar institutining mazmuni, uning huquqiy mohiyati hamda qoplash mexanizmlari uzoq yillardan buyon ilmiy tadqiqotlar markazida bo'lib kelmoqda. Biroq umumiy delikt normalarini ichki ishlar organlari xodimlariga nisbatan qo'llash jarayonida bir qator o'ziga xos jihatlar yuzaga keladi. Mazkur maqolaning maqsadi fuqarolik huquqida "zarar" tushunchasining huquqiy mohiyatini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish, shuningdek, ichki ishlar organlari xodimlariga nisbatan zarar institutini qo'llashning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashdan iborat. Tadqiqot doirasida xizmat vazifalarini bajarish jarayonida hayot va sog'liqqa yetkazilgan zarar uchun javobgarlikning huquqiy asoslari, javobgar subyektni aniqlash, zarar bilan xizmat faoliyati o'rtasidagi sababiy bog'liqlik hamda zarar miqdorini belgilash bilan bog'liq muammolar kompleks tarzda o'rganiladi.

Metodologiya. Tadqiqotda tahlil va sintez, mantiqiy hamda tizimli yondashuv usullari orqali fuqarolik huquqida "zarar" tushunchasining mazmuni va uni ichki ishlar organlari xodimlariga nisbatan qo'llash xususiyatlari o'rganildi. Normativ-huquqiy tahlil metodi asosida Fuqarolik kodeksi va sohaviy qonun hujjatlari tahlil qilindi.

Shuningdek, sud amaliyotini o'rganish usuli orqali hayot va sog'liqqa yetkazilgan zarar bo'yicha javobgarlik, sababiy bog'liqlik va kompensatsiya masalalaridagi muammolar aniqlab berildi.

Natijalar. Shuni alohida qayd etish joizki, xodimning hayoti va sog'lig'iga yetkazilgan zararni qoplash bilan bog'liq munosabatlarni huquqiy tartibga solishda fuqarolik, mehnat hamda sug'urta huquqi normalari o'zaro uzviy bog'liq holda qo'llaniladi. Buning sababi, xodimning hayoti va sog'lig'i mutlaq huquqlar sirasiga kirib, ular, avvalo, fuqarolik huquqi normalari orqali himoya qilinadi. Zarar yetkazish natijasida vujudga keladigan majburiyatlar tizimida xodimning hayoti va sog'lig'iga yetkazilgan zararni qoplash masalalarini tartibga solishda O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi yetakchi ahamiyatga ega. Mazkur Kodeksning 57-bobida zararni qoplashga oid umumiy qoidalar bilan bir qatorda, maxsus normalar ham belgilangan. Xususan, Fuqarolik kodeksining 1005–1016-moddalarida xodimning hayoti va sog'lig'iga yetkazilgan zararni qoplashga doir munosabatlar tartibga solinib, unda ushbu munosabatlar ishtirokchilari uchun majburiy bo'lgan asosiy umumiy va maxsus talablar mustahkamlangan.

Shuningdek, xodimning hayoti hamda sog'lig'iga yetkazilgan zararni qoplash masalalarida O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 12-bobida belgilangan normalar muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur bobda xodim mehnat vazifalarini bajarishi bilan bog'liq holatda unga yetkazilgan zararni qoplash ish beruvchining majburiyati sifatida mustahkamlab qo'yilgan. Shu bilan birga, xodimning ushbu huquqi O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 6-maydagi "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi, 2008-yil 10-sentabrdagi "Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan majburiy davlat ijtimoiy sug'urtasi to'g'risida"gi hamda 2009-yil 16-apreldagi "Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida"gi qonunlarda yanada batafsil va aniq tarzda tartibga solingan.

Muhokama. Xodimning hayoti va sog'lig'iga yetkazilgan zararni qoplashga oid ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga soluvchi amaldagi qonunchilik hamda uni qo'llash amaliyotini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bilan bog'liq munosabatlarda qator muammolar saqlanib qolmoqda. Jumladan, bir tomondan, xodimning yetkazilgan zararni to'liq undirish huquqiga bevosita ta'sir etuvchi normativ-huquqiy hujjatlarning tez-tez o'zgarib turishi ularning barqarorligini ta'minlamayapti, ikkinchi tomondan esa, qonun va qonunosti hujjatlaridagi ayrim qoidalar o'rtasida qarama-qarshiliklar mavjud. Bundan tashqari, zarar to'lovlari miqdorini muayyan davrlar kesimida oshirib borishni nazarda tutuvchi aniq va ravshan mexanizmlarning belgilanmaganligi ham alohida muammo sifatida namoyon bo'lmoqda.

Xususan, xizmat vazifasini bajarish tushunchasining huquqiy chegaralarini aniqlash, zarar yetkazilgan holat bilan xodimning xizmat faoliyati o'rtasidagi sababiy bog'liqlikni belgilash, shuningdek, zarar uchun javobgar subyekt sifatida bevosita aybdor shaxs yoki davlat organini aniqlash masalalari amaliyotda muayyan murakkabliklarni keltirib chiqarmoqda. Amaldagi qonunchilikda hayot va sog'liqqa yetkazilgan zarar uchun javobgarlikning umumiy asoslari belgilangan bo'lsa-da, ichki ishlar organlari xodimlarining alohida huquqiy maqomi, ularning xizmat faoliyatining o'ziga xosligi hamda davlat manfaatlari bilan uzviy bog'liqligi zarar institutini

qo'llashda maxsus yondashuvni talab etadi. Shu bilan birga, sud amaliyotida ichki ishlar organlari xodimlarining hayoti va sog'lig'iga yetkazilgan zarar bo'yicha kompensatsiya miqdorini aniqlash, ma'naviy zararni baholash hamda davlatning fuqarolik-huquqiy javobgarligi doirasini belgilash masalalarida bir xillik yetarli darajada ta'minlanmagan.

Xulosa. O'tkazilgan tadqiqot natijalari fuqarolik huquqida "zarar" instituti ichki ishlar organlari xodimlariga nisbatan qo'llanilganda umumiy delikt qoidalari bilan bir qatorda, xodimlarning alohida huquqiy maqomi va xizmat faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish zarurligini ko'rsatdi. Tahlil shuni ko'rsatdiki, xizmat vazifasini bajarish jarayonida xodimning hayoti va sog'lig'iga zarar yetkazilgan holatlarda javobgar subyektini aniqlash masalasi amaliyotda eng murakkab muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Bunday vaziyatlarda bevosita zarar yetkazgan shaxs bilan bir qatorda, zarar davlat organining faoliyati bilan uzviy bog'liq bo'lsa, davlatning fuqarolik-huquqiy javobgarligi masalasini ham aniq huquqiy mezonlar asosida hal etish talab etiladi. Shu bilan birga, davlat tomonidan zarar qoplanganidan so'ng regress talabini qo'llash tartibi ham qonunchilikda yanada aniqroq belgilanishi maqsadga muvofiq. Tadqiqot davomida ichki ishlar organlari xodimlariga nisbatan zarar institutini qo'llashda xizmat faoliyati bilan zarar o'rtasidagi sababiy bog'liqlikni isbotlash, shuningdek, hayot va sog'liqqa yetkazilgan zarar bo'yicha kompensatsiya hamda ma'naviy zarar miqdorini aniqlash masalalarida sud amaliyotida bir xillik yetarli darajada shakllanmaganligi aniqlandi. Bu esa fuqarolarning, jumladan ichki ishlar organlari xodimlarining huquqlari samarali himoya qilinishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu munosabat bilan, ichki ishlar organlari xodimlarining hayoti va sog'lig'iga yetkazilgan zararni qoplashga oid normalarni fuqarolik, mehnat hamda sug'urta qonunchiligi doirasida o'zaro uyg'unlashtirish, javobgarlik subyektini belgilash mezonlarini normativ jihatdan aniqlashtirish, shuningdek, zarar va xizmat faoliyati o'rtasidagi sababiy bog'liqlikni baholashga oid yagona yondashuvni shakllantirish maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari, zarar to'lovlari miqdorini belgilashda hamda ma'naviy zarar uchun kompensatsiya tayinlashda sudlar tomonidan qo'llaniladigan mezonlarni Oliy sud Plenumi qarorlari orqali yanada aniqlashtirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. – Toshkent, 1996.
2. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi. – Toshkent, 2022.
3. O'zbekiston Respublikasining "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni. – 1993.
4. O'zbekiston Respublikasining "Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan majburiy davlat ijtimoiy sug'urtasi to'g'risida"gi Qonuni. – 2008.
5. O'zbekiston Respublikasining "Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida"gi Qonuni. – 2009.
6. Брагинский М.И., Витрянский В.В. Договорное право. Книга третья: Обязательства вследствие причинения вреда. – М.: Ст, 2011.
7. Xolmatov B.X. Fuqarolik-huquqiy javobgarlik va uni qo'llash masalalari. – Toshkent: TDYU, 2020.